



QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks: 652-14-65, 652-19-48

2021 - yil 17 - noyabr

444-4-63-Q/21

Mirishkor tuman hokimligi

Oltinchi chaqiriq Xalq deputatlari Mirishkor tumani kengashining yigirma sakkizinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasiga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Oltinchi chaqiriq Xalq deputatlari Mirishkor tumani kengashining yigirma sakkizinchi sessiyasi 2021 yil 23 noyabr kuni soat 14:00 da Yangi Mirishkor shaharchasi Mirishkor tumani hokimligiga chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

1-masala. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-6155-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash bo'yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida.

2-masala. Boshqa masalalar.

3. Sessiya ishiga tuman kengashi deputatlari, tuman hokimining tegishli o'rinbosarlari, tegishli tashkilot va muassasalar rahbarlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etilsin.

Tuman hokimi



Sh.Ch.Sanayev